



## ZULFIYA-O'ZBEK AYOLI TIMSOLI

**Abduyusupova Diyora Nurmurodovna**

*Toshkent tibbiyat akademiyasi 3-kurs talabasi*

Zulfiya Isroilova — taniqli va mashhur o'zbek shoirasi. Zulfiya 1915 Toshkentda hunarmand-degrezchi oilasida. Zulfiyaning ota-onasi yuqori madaniyatli odamlar bo'lishgan. Onasi haqida xotirlab shunday degan, "onam ohista va xotiramda saqlanishicha, ma'yus bo'lganlar. Lekin ularda qullik horg'inligi bo'lman... Ular qanchadan-qancha qo'shiq va afsonalar bilganlar, ularni mohirona aytib, kuylab bera olganlar, biz-farzandlarini sehrli ertaklar bilan qiziqtira olganlar, mo'jizalarga sabab bo'luvchi, dunyoni fosh qiluvchi, insoniyatni ajoyibotlar sari yetaklovchi "so'z"ga bo'lgan mehrni oddiygina ayol - onam uyg'otganlar...".

Zulfiya o'rta maktabni va ayollar pedagogika bilim yurtini tamomlab, respublika gazeta va jurnal nashriyolarida ish faoliyatini boshladi, she'riyatga qiziqib qoldi va she'rlar yoza boshladi. Uning ilk she'rlari "Yangi yo'l" oynomasi va "Qizil O'zbekiston" hamda "Yosh leninch" gazetalarida olam yuzini ko'rgan.

Uning birinchi she'riy to'plami 1932 yil 17 yoshni qarshi olganida "Hayot sahifalari" chop etildi. Bular — yoshlар, do'stlik, inson qalbining go'zalligi haqidagi she'rlar edi. So'ngra, she'rlari, dostonlari va hikoyalari e'tirof qilinib, turli nashrlarda alohida kitoblar ko'rinishida chop etila boshladi.

Zulfiyaning she'riyatida mehnat mavzusi ko'proq tilga olinadi. U mamlakat saodati va keladagi uchun o'z kuchini sarflayotgan paxtakorlarni va ishchilarni, muhandis va olimlarni tarannum etadi.

Zulfiya ijodida o'zbek ayolining taqdiri muhim o'rин egallaydi, uning mamlakat hayotidagi faol o'rni muhim ahamiyat kasb etishi haqida qalam tebratadi.

Iqtidorli shoira va yozuvchi, inson qalb tug'yonlarini o'tkir bilimdoni bo'lib, turli janrlarda o'nlab asarlar yaratgan: dostonlar, balladalar, elegiyalar, nasriy she'rlar, hikoyalari, ocherklar, publissistik maqolalar va gazeta xabarları.

Shoiraning eng mashhur she'rlari: "Xulkar" (1947), "Men tongni kuylayman" (1950), "Yuragimga yaqin kishilar" (1958), "Yurak yo'lда" (1966), "Mening bahorim" (1967), "Sharshara" (1969) kabilardir.

Zulfiyaning ayrim she'rlari rus tiliga tarjima qilingan. Masalan, "Men tongni kuylayman" (1950) ("Ya poyu zaryu"), rus tiliga 1951 yil tarjima qilingan.

1984 yil "Jamiyat mehnat qahramoni" unvoniga sazovor bo'lgan. SSSR davlat mukofoti laureatiga aylangan.

2004 yil O'zbekistonda Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti ta'sis etilib, adabiyot, san'at, ilm-fan, madaniyat va ta'lim sohalaridagi muvaffaqiyatga erishgan, yoshi 14 dan 22 yoshgacha bo'lgan qizlarga har yili 8-mart — Xalqaro xotin-qizlar bayrami kuni taqdim etiladi.

